FARG‘ONA VILOYATI QO‘QON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-noyabr 299-11-166-Q/24 Qo‘qon shahar hokimligi

Fargʻona viloyati Qo‘qon shahar Qizil Yarim Oy jamiyati tashkiloti hisobiga mablagʻ toʻplash “Xayriya xaftaligi”ni oʻtkazish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati toʻgʻrisida”gi 1992-yil 28-maydagi PF-411-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati toʻgʻrisida”gi 1992-yil 5-oktabrdagi 458-son qarori hamda viloyat hokimining 2024-yil 6-noyabr kungi 586-11-0-Q/24-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida, Oʻzbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining 2024-yil 8-oktabrdagi 01/173-son xatini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Fargʻona viloyat hokimining 2024-yil 6-noyabr kungi 586-11-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining aholiga insonparvarlik yordamini ko‘rsatish bo‘yicha olib borayotgan ishlarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida shaharda 2024-yilning 15-21 noyabr kunlari davomida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti jamg‘armasiga mablag‘ to‘plash “Xayriya xaftaligi” o‘tkazilsin.

3.Shahar Qizil Yarim Oy jamiyati hisobiga xayriya to‘plash xaftaligini samarali o‘tkazish maqsadida shahar tashkiliy qo‘mitasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Shahar hududida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqarma, idora va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining mintaqaviy va mahalliy tashkilotlari hisob raqamlariga belgilangan tartibda ishchi-xodimlarning o‘z roziliklari asosida ixtiyoriy ravishda bir kunlik a’zolik badallari va xayriya mablag‘lari o‘tkazib berish tavsiya etilsin.

5.Shahardagi boshqarma, idora va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkilotga ko‘maklashish maqsadida belgilangan tartibda a’zo qilish hamda boshlang‘ich tashkilotlarni tuzish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

6.Shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Otamirzayev), O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti (Sharobiddinova):

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori ijrosini ta’minlash;

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining funksional va hududiy tizimi xizmatlari tarkibini O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti tomonidan shartnoma (kontrakt) asosida birinchi yordam ko‘rsatishga o‘qitishni toifalangan obyektlardagi sanitar-drujina a’zolariga amaliy yordam ko‘rsatish, zarur jihozlar bilan ta’minlash va tayyor holatga keltirish choralarini ko‘rsin.

7.Shahar Mudofaa ishlari bo‘limi (Toshpo‘latov)ga O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti hisobiga shaxsiy badal topshirish va mablag‘ to‘plash yuzasidan shaxsiy tarkibi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish tavsiya etilsin.

8.Shahar Ichki ishlar bo‘limi (Parpiyev), shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Otamirzayev), O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti (Sharobiddinova) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori talablaridan kelib chiqib, Ichki ishlar boshqarmasi, eng avvalo, shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi xodimlarini, kursantlar va haydovchilarni jabr ko‘rganlarga birinchi yordam ko‘rsatish amaliyotiga shartnoma (kontrakt) asosida o‘qitilishini tashkil etsin.

9.O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi Qo‘qon shahar bo‘limi (Djurayev), shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Otamirzayev), O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti (Sharobiddinova) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-son qarori talablaridan kelib chiqib, mahalla aholisini eng avvalo, mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlarini jarohat ko‘rganlarga birinchi yordam ko‘rsatish amaliyotiga o‘qitish choralarini ko‘rsin.

10.Shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Otamirzayev), O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati shahar tashkiloti (Sharobiddinova) **bir xaftalik muddatda** favqulodda vaziyatlar sharoitida ishlatish uchun tashkil etilgan zaxira omborini zarur jihozlar bilan to‘ldirish bo‘yicha shahar hokimligiga taklif kiritsin.

11.Shahar Tibbiyot birlashmasi (Sirojiddinov), shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Mirzayeva), Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, kasb-hunar kollejlar koordinatori (Allanazarov)lar 2025-yil I chorak yakuni bo‘yicha oliy ta’lim, umumta’lim maktablari va kasb-hunar ta’limi tizimiga qarashli o‘quv muassasalarida Qizil Yarim Oy jamiyatining boshlang‘ich tashkilotlarini tuzishda hamda jamoatchilik asosida sanitariya postlarini tashkil etishda, ularni birinchi yordamga o‘qitishga O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkilotiga amaliy yordam

bersinlar hamda sanitariya postlari tarkibini tegishli jihozlar bilan ta’minlash yuzasidan alohida nazorat o‘rnatsinlar.

12.O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati shahar tashkiloti (Sharobiddinova) shahardagi Oliy o‘quv yurtlari rahbarlari bilan birgalikda jamoatchilik asosida talabalardan iborat qutqaruvchilar guruhlarini tashkil etsin hamda mazkur guruhlar tarkibini shahar hududida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga doir o‘tkaziladigan taktik-o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirokini ta’minlasin.

13.Shahar hokimining barcha o‘rinbosarilari, shaharda faoliyat olib borayotgan idora va tashkilot rahbarlariga O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkilotini qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘z hududlarida belgilangan muddatlarda xayriya xaftaligini uyushqoqlik bilan o‘tkazish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish hamda xayriya kunlari davomida “Homiylik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida homiylik aksiyalarini o‘tkazib, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkilotiga korxona, tashkilot va muassasalardan xayriya mablag‘larini o‘tkazib berish;

ikki oy muddatda O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkilotiga tegishli ravishda xizmat xonalari bilan ta’minlash masalasini hal etish;

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati mahalliy bo‘limlari huzurida tashkil etiladigan zaxira omborlarida tabiiy ofatlar va shu kabi boshqa ekstremal vaziyatlar ro‘y bergan hollarda ishlatish uchun zarur jihozlar va mahsulotlarni saqlash maqsadida alohida xonalar ajratish choralarini ko‘rsin.

14.“Qo‘qon sadosi” ro‘znomasi tahririyati (Sultonov), “Muloqot” TV (X.Shermatov)larga O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining maqsad va vazifalarini hamda faoliyatini aholi o‘rtasida targ‘ib qilish tavsiya etilsin.

15.Shahardagi barcha tijorat banklari rahbarlari, shahar Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi (Rasulov), shahar G‘aznachilik bo‘limi (Soliyev) 2024-2025-yillar davomida xayriya yordamlaridan, a’zolik badallari va homiylardan tushgan mablag‘larni Agro bank Qo‘qon shahar filialidagi (20212000600570050001) hisob raqamiga, (MFO: 00546, STIR: 200128284) belgilangan tartibda o‘z vaqtida o‘tkazib berilishini ta’minlasinlar.

16.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Meliqo‘ziyev zimmasiga yuklatilsin.

Qo‘qon shahar hokimi **M.Usmonov**

Qo‘qon shahar hokimining
2024-yil 15-noyabrdagi
299-11-166-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qo‘qon shahar Qizil Yarim Oy jamiyati hisobiga xayriya o‘n kunligini o‘tkazish bo‘yicha shahar tashkiliy qo‘mitasi

TARKIBI

1.	A.Meliqo‘ziyev	Shahar hokimi o‘rinbosari, **tashkiliy qo‘mita raisi**
2.	K.Sharobiddinova	O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qo‘qon shahar tashkiloti ijrochi direktori, tashkiliy qo‘mita kotibi
Tashkiliy qo‘mita a’zolari		
3.	Z.Djurayev	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi
4.	A.Parpiyev	Ichki ishlar boshqarmasi
5.	M.Rasulov	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
6.	D.Otamirzayev	Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
7.	K.Sirojiddinov	Tibbiyot birlashmasi bosh shifokori
8	O.Soliyev	G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i
9	A.Allanazarov	Kasb-hunar kollejlari va texnikumlari koordinatori
10	M.Maqsudov M.G‘apurov D.Xodjayeva G.Zaxidov	Oliy ta’lim muassasalari rektorlari
11	I.Mirzayeva	Maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i
12	M.Sultonov	Qo‘qon sadosi ro‘znomasi muharriri
13	Lavozimiga ko‘ra	Qo‘qon Biyokimyo A/J rahbari
14	Lavozimiga ko‘ra	Qo‘qon Mexanika zavodi rahbari
15	A.Munavvarov	Qo‘qon Effiktiv oil rahbari
16	R.Sinkh	Indorama Kokand Fertilezers and Chemikals AJ rahbari
8.	B.Shamsiddinov	Qo‘qon Mastona A/J rahbari
9.	A.Pazilov	Yevro print MCHJ rahbari
10	D.Reyna	Indorama Kokand Textile rahbari

11	Lavozimiga ko‘ra	Shahardagi barcha tijorat banklari boshqaruvchilari